



## TAFAKKUR-SHAXS MA'NAVIY KAMOLOTI VA INTELLEKTUAL SALOHIYATINING FUNDAMENTAL ASOSI

ANDIJON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI FILOLOGIYA  
FAKULTETI O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI TA'LIM YO'NALISHI TALABASI  
**HAMIDOVA MOHINUR XOLMUROD QIZI**

**ANNOTATSIYA:** Ushbu maqolada tafakkur fenomenining falsafiy psixologik va pedagogic jihatlari tadqiq etiladi. Unda inson kognitiv faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari, mantiqiy va kreativ fikrlashning jamiyat taraqqiyotidagi o'rni hamda intellectual salohiyatni yuksaltirish mexanizmlari tahlil qilingan. Bitiruvchi yosh mutaxassislar uchun mustaqil fikrlash madaniyatini shakllantirishning ahamiyati yoritilgan.

**KALIT SO'ZLAR:** TAFAKKUR, kognitiv jarayon, intellectual salohiyat, mantiqiy analiz, tanqidiy fikrlash, gnoseologiya, aksiologik yondashuv, kreativlik, axborot jarayoni.

### KIRISH

Insoniyat tarixining har bir bosqichida jamiyatni harakatga keltiruvchi asosiy kuch-bu inson tafakkuri bo'lib kelgan. XXI asr yuksak texnologiyalar va intellektual resurslar asri sifatida inson zimmasiga nafaqat bilimga ega bo'lish, balki o'sha bilimni tahlil qilish va yangi g'oyalarga aylantirish mas'uliyatini yuklamoqda. O'zbekistonning yangi taraqqiyot bosqichida kreativ fikrlaydigan, muammolarga innovatsion yechim topa oladigan kadrlar tayyorlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylandi.

**TAFAKKUR**-bu borliqni umumlashtirilgan va vositali aks ettirish jarayoni bo'lib, u insonning eng oliy ruhiy va aqliy faoliyatidir. Bitiruvchi talaba uchun ushbu mavzuni tadqiq etish, nafaqat nazariy bilimni mustahkamlaydi, balki kelajakdagi professional faoliyatda to'g'ri strategik qarorlar qabul qilish ko'nikmasini shakllantiradi.



## TAFKKURNING FALSAFIY VA PSIXOLOGIK TALQINI

Falsafa tarixida tafakkur masalasi gnoseologiya(bilish nazariyasi)ning markaziy muammo bo'lib kelgan.Qadimgi yunon faylasuflaridan tortib, sharq renessansi namoyandalari ham tafakkurning"ruhning o'zi-o'zi bilan suhbatii" va haqiqatni toppish kalitii"deb bilishgan.Psixologik nuqtayi nazardan tafkkur-bu insonning muammoli vaziyatlarni hal qilishga qaratilgan faoliyatidir. U sezgi va idrokdan farqli o'laroq, narsa va hodisalarning bizga bevosita ko'rinmaydigan ichki mohiyatini,qonuniyatlarini ochib beradi.tafakkurning asosiy operatsiyalari quyidagilardir:

Analiz (tahlil) butunni qismlarga ajratish

Sintez :bo'laklarni birlashtirib yaxlit xulosa chiqarish

Taqqoslash :o'xshashlik va farqlarni aniqlash

Abstraksiyalash:muhim bo'lmagan belgilardan chetlashib, asosiy mohiyatga e'tibor qaratish.

## Sharq va G'arb mamlakatlari qarashlarida tafakkur madaniyati

Sharq falsafasida,xususan, islom falsafasining oltin davrida "tafakkur"tushunchasi ibodat darajasiga ko'tarilgan.Abu Nasr Farobiy o'zining "Fozil odamlar shahri"asarida aql va tafakkurni davlatni boshqarish va insonni baxtga yetaklashning yagona yo'li deb hisoblaydi.Uning fikricha,inson tug'ma qobiliyatlarini faqat tinimsiz fikrlash va bilim orqali takomillashtirishi mumkin.Imom g'azzoliy esa tafakkurni "qalb ko'zining ochilishi"deb ataydi. Uning "ihyou ulumid-din"asarida tafakkurning foydasi haqida shunday deyiladi:"bir soatlik tafakkur bir yillik"(nafl)ibodatdan afzaldir.bu yerda gap voqelikning mohiyatini anglash,sabab va oqibatini tahlil qilish haqida bormoqda.

G'arb falsafasida esa RENE DEKARTNING"Fig'rlayapmanmi,demak, mavjudman" tamoyili zamonaviy ratsionalizmga asos soldi. Bu insonning mavjudligi uning ongli tafakkuri belgilanishini anglatadi.

## ZAMONAVIY TAFAKKUR TURLARI VA ULARNING AHAMIYATI



Bugungi kunda mutaxassislar oldida turgan eng katta talab-bu tanqidiy tafakkur (critical thinking). Axborot oqimi haddan tashqari ko'p bolgan sharoitda, qaysi ma'lumot to'g'ri, qaysi biri noto'g'ri ekanligini ajrata olish hayotiy zaruratdir. Tanqidiy fikrlaydigan inson:

Dalillar Shubha ostiga oladi;

Mantiqiy xatolarni tez payqaydi;

O'z qarashlarini asoslab beroladi;

Shuningdek, kreativ tafakkur ham zamonaviy kadrning ajralmas qismidir. Kreativlik-bu faqat san'at emas, balki kutilmagan vaziyatda eng samarali va yangi yo'lni topa olish qobiliyatidir. Bitiruvchi talaba o'z sohasi bo'yicha "shablonli" fikrlashdan qochib, innovatsion g'oyalar ustida ishlashi uning raqobatbardoshligini ta'minlaydi.

## TAFAKKURNI SHAKLLANTIRISHDA TA'LIMNING O'RNI

Oliy ta'lim tizimi talabada shunchaki ma'lumotlar bazasini yaratmasligi, balki o'sha ma'lumotlarni qayta ishlash madaniyatini-tafakkurni tarbiyalashi lozim. Problema ta'lim usullari, keys-stadi texnologiyalari va debat formatidagi darslar talabaning mustaqil fikrlashini rag'batlantiradi. Tafakkur-ruhning nuri.

Buyuk mutafakkirlarimiz ta'kidlaganidek, bir soatlik teran tafakkur uzoq yillik g'ofillikdan afzaldir. Chunki tafakkur qilayotgan inson voqelikka yuzaki qaramaydi; u har bir hodisadan xulosa chiqaradi, xatolaridan saboq oladi va kelajakni tushunchalar orqali quradi. Dunyo taraqqiyoti, ilm-fan kashfiyotlari va san'at durdonalari-barchasi cheksiz tafakkur mevasidir

## XULOSA

Xulosa qilib aytganda, tafakkur-bu insonning ma'naviy va intellectual pasportidir. Dunyoqarashning kengligi, fikrlarning teranligi va mulohazalarning mantiqiyliigi har qanday mutaxassisning eng kuchli qurolidir. Talaba uchun oliy dargohda olgan eng katta sovg'asi-bu mustaqil va erkin fikrlash qobiliyatining shakllanganidir. Zero, buyuk bobomiz Alisher Navoiy aytganlaridek: "Bilim-saodat kaliti, tafakkur esa uning nuri".



Haqiqiy tafakkur egasi hech qachon bironing fikriga ko'r-ko'rona ergashmaydi, balki haqiqatni ilm va mantiq tarozisida tortib ko'radi. Bu esa jamiyatning barqaror rivojlanishi va uchinchi RENESSANS poydevorini quyish uchun eng muhim omildir.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

- 1.Nurullo o'gli A.A(2023) Sharq mutafakkirlarining asarlarida psixodiagnostikaga doir qarashlari.Taraqqiyot,13.2023
- 2.Vaxobova O'.T(2024) Globallashuv sharoitda axborot muhitining yoshlar ijtimoiy normalariga shakllanadigan ta'sirining psixologik jihatlari.
- 3.O'g'ilxon T.V(2023).Axborot muhiti yoshlar ijtimoiy normalari shakllanishiga ta'sirini tadqiq etishning metodik jihatlari.(11(132)) 15-22Leontyev A.N Faoliyat, ong va shaxs,-Moskva:Politizdat
- 4.Luriya A.R Oliy psixik funksiyalar va ularning miya asoslari-Moskva:MGU,1973
- 5.Nemov R.S Psixologiya(1-3 jildlar)-Moskva:Vlados,2003
- 6.Rubinshteyn S.I.Umumiy psixologiya asoslari,-Sankt-Peterburg:Piter,2002
- 7.Stemberg R,J Cognitiv psychology-Belmont:wadsworth 2011
- 8.Vygotskiy L.S Tafakkur va nutq-Moskva:Pedagogika,1982.